



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*


*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi.*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2024-yil 1-avgust holatiga ko‘ra viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 40 708 (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 34 608) tani tashkil etdi.


Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar, yillar kesimida (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-avgust holatiga ko‘ra, birlikda.)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2024-yil yanvar-iyul oylarida, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog‘liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2024-yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 4 675 tani tashkil etmoqda.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda, oylaviy korxonalar soni 39 taga, ko‘paygan.

Hududlar kesimida


Samarqand sh.	1 119	9,7 %	Ishtixon t.	176	9,0 %
Samarqand t.	759	22,2 %	Oqdaryo t.	174	10,2 %
Pastdarg‘om t.	361	12,1 %	Payariq t.	169	8,3 %
Kattaqo‘rg‘on t.	299	14,5 %	Paxtachi t.	161	13,0 %
Urgut t.	255	8,0 %	Jomboy t.	152	9,4 %
Toyloq t.	236	12,5 %	Narpay t.	152	10,3 %
Bulung‘ur t.	207	12,0 %	Kattaqo‘rg‘on sh.	150	10,9 %
Nurobod t.	180	13,6 %	Qo‘shrabot t.	125	10,8 %

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar savdo sohasida 15 255 tani, sanoatda 5 287 tani, yashash va ovqatlanishda 3 331 tani, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 2 340 tani, qurilishda 2 215 tani tashkil etmoqda.



Hududlar kesimida

Samarqand sh.	11 575	Bulung'ur t.	1 720
Samarqand t.	3 412	Oqdaryo t.	1 699
Urgut t.	3 189	Jomboy t.	1 623
Pastdarg'om t.	2 973	Narpay t.	1 472
Kattaqo'rg'on t.	2 069	Kattaqo'rg'on sh.	1 380
Payariq t.	2 038	Nurobod t.	1 319
Ishtixon t.	1 947	Paxtachi t.	1 242
Toyloq t.	1 894	Qo'shrabot t.	1 156



2024-yil yanvar-iyul oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib berish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2024-yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 4 578 tani tashkil etdi.



Hududlar kesimida

Samarqand sh.	1 093	10,8 %	Oqdaryo t.	172	11,8 %
Samarqand t.	751	24,1 %	Ishtixon t.	171	10,4 %
Pastdarg'om t.	354	14,1 %	Payariq t.	165	9,7 %
Kattaqo'rg'on t.	293	17,0 %	Paxtachi t.	157	15,7 %
Urgut t.	245	9,3 %	Narpay t.	150	12,6 %
Toyloq t.	231	14,2 %	Jomboy t.	148	10,6 %
Bulung'ur t.	203	14,0 %	Kattaqo'rg'on sh.	146	12,1 %
Nurobod t.	177	16,3 %	Qo'shrabot t.	122	13,4 %

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024-yil 1-avgust holatiga 34 816 taga yetib, 2020-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 94,0 foizni tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagi tartibda taqsimlanmoqda: savdo – 43,8 foiz, sanoat – 15,2 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 9,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 6,6 foiz, qurilish - 6,3 foiz, tashish va saqlash - 2,7 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 2,6 foiz, axborot va aloqa - 1,9 foiz va boshqa turlari - 11,4 foiz.

Hududlar kesimida


Samarqand sh.	10 161	Oqdaryo t.	1 460
Samarqand t.	3 113	Bulung'ur t.	1 453
Urgut t.	2 645	Jomboy t.	1 396
Pastdarg'om t.	2 509	Kattaqo'rg'on sh.	1 203
Kattaqo'rg'on t.	1 720	Narpay t.	1 191
Payariq t.	1 698	Nurobod t.	1 087
Ishtixon t.	1 642	Paxtachi t.	999
Toyloq t.	1 627	Qo'shrabot t.	912

2024-yil yanvar-iyul oylarida, birlikda




Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mamlakat iqtisodiyotining "Sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2024-yil yanvar-iyul oylarida axborot va aloqa sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023-yilning mos davriga nisbatan 113 tadan 251 taga (o'sish 138 taga) yetdi.



Hududlar kesimida

Samarqand sh.	1 086	10,8 %	Oqdaryo t.	171	11,8 %
Samarqand t.	742	24,0 %	Ishtixon t.	171	10,4 %
Pastdarg'om t.	354	14,2 %	Payariq t.	164	9,7 %
Kattaqo'rg'on t.	293	17,1 %	Paxtachi t.	157	15,8 %
Urgut t.	244	9,3 %	Narpay t.	150	12,6 %
Toyloq t.	230	14,2 %	Jomboy t.	148	10,6 %
Bulung'ur t.	203	14,0 %	Kattaqo'rg'on sh.	146	12,2 %
Nurobod t.	177	16,4 %	Qo'shrabot t.	121	13,3 %

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda. Kichik biznes subyektlarining asosiy qismi Samarqand shahrida (29,0 foiz), Samarqand tumani (8,9 foiz), Urgut (7,6 foiz) va Pastdarg'om (7,2 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda viloyatdagi jami kichik biznes subyektining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Hududlar kesimida


Samarqand sh.	10 053	Oqdaryo t.	1 455
Samarqand t.	3 091	Bulung'ur t.	1 448
Urgut t.	2 635	Jomboy t.	1 390
Pastdarg'om t.	2 496	Kattaqo'rg'on sh.	1 199
Kattaqo'rg'on t.	1 711	Narpay t.	1 188
Payariq t.	1 694	Nurobod t.	1 082
Ishtixon t.	1 640	Paxtachi t.	993
Toyloq t.	1 623	Qo'shrabot t.	910

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar

2024-yil 1-avgust holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

Nurobod t.	358
Kattaqo‘rg‘on t.	286
Samarqand t.	258
Pastdarg‘om t.	245
Oqdaryo t.	139
Urgut t.	139
Bulung‘ur t.	126
Payariq t.	111
Paxtachi t.	108
Ishtixon t.	98
Qo‘shrabot t.	97
Narpay t.	90
Jomboy t.	89
Samarqand sh.	87
Toyloq t.	69
Kattaqo‘rg‘on sh.	40



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.

Baliq ovlash va akvakultura

21

O‘rmonchilik va yog‘och
tayyorlash

144


Dehqonchilik va
chorvachilik, ovchilik va
bu sohalarda xizmat
ko‘rsatish

2 175

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

Samarqand sh.	1 076
Urgut t.	734
Samarqand t.	557
Pastdarg'om t.	377
Ishtixon t.	301
Toyloq t.	278
Kattaqo'rg'on t.	257
Jomboy t.	250
Kattaqo'rg'on sh.	225
Oqdaryo t.	216
Payariq t.	201
Narpay t.	192
Bulung'ur t.	190
Paxtachi t.	176
Qo'shrabot t.	138
Nurobod t.	119



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi uch yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarining sonining o'zgarish sur'ati 62,1 foizni tashkil etgan.


Sanoat korxonalarining soni jami korxonalar va tashkilotlarning 13,0 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan, – 94,6 foizini ishlab chiqarish sanoati, 4,0 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,0 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,4 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.



2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Samarqand sh.	748
Payariq t.	190
Pastdarg'om t.	164
Samarqand t.	150
Urgut t.	139
Oqdaryo t.	104
Toyloq t.	102
Kattaqo'rg'on sh.	94
Kattaqo'rg'on t.	93
Ishtixon t.	82
Jomboy t.	79
Qo'shrabot t.	62
Narpay t.	59
Bulung'ur t.	55
Paxtachi t.	50
Nurobod t.	44



Voliyatda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri sifatida hisoblangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, jami qurilish korxonalariga nisbatan:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 58,2 foizni;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 18,8 foizni;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 23,0 foizni tashkil etadi.

416



Fuqarolik
obyektlarini qurish

509

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

1 290


Bino va
inshootlar qurish



2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Samarqand sh.	4 146
Samarqand t.	1 390
Pastdarg'om t.	1 227
Urgut t.	1 022
Payariq t.	804
Ishtixon t.	778
Bulung'ur t.	759
Toyloq t.	726
Oqdaryo t.	712
Kattaqo'rg'on t.	695
Jomboy t.	642
Narpay t.	603
Kattaqo'rg'on sh.	521
Paxtachi t.	488
Qo'shrabot t.	445
Nurobod t.	297



Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 15 212 tasi kichik biznes subyektlari hissasiga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo sohasi ulushi 71,3 foiz;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo sohasi 18,7 foiz;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash 10,0 foizini tashkil etadi.

1 521

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

2 851

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


10 883

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Samarqand sh.	1 309
Samarqand t.	271
Urgut t.	196
Pastdarg'om t.	192
Kattaqo'rg'on t.	164
Payariq t.	163
Toyloq t.	157
Ishtixon t.	131
Jomboy t.	124
Narpay t.	112
Kattaqo'rg'on sh.	109
Bulung'ur t.	109
Oqdaryo t.	107
Nurobod t.	70
Qo'shrabot t.	68
Paxtachi t.	49



2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 3 331 tani tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

-yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 13,0 foiz ulushini mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar tashkil etmoqda;

-87,0 foiz ulushini esa oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar tashkil etmoqda.

435

Yashash bo'yicha xizmatlar



2 896


Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Samarqand sh.	301
Samarqand t.	60
Payariq t.	47
Urgut t.	47
Kattaqo'rg'on sh.	41
Oqdaryo t.	35
Pastdarg'om t.	32
Ishtixon t.	25
Bulung'ur t.	18
Toyloq t.	18
Kattaqo'rg'on t.	16
Jomboy t.	13
Qo'shrabot t.	10
Narpay t.	10
Paxtachi t.	6
Nurobod t.	5



2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, aloqa yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 34,6 foizini tashkil etdi.


Shuningdek, axborot xizmati ko'rsatish sohasi 13,0 foizini, kompyuter dasturlashtirish maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar 35,4 foizini, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish 2,3 foizini, nashirlik faoliyati 12,7 foizini hamda dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish faoliyati bo'yicha 2,0 foizini tashkil etdi.



2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Samarqand sh.	416
Urgut t.	61
Toyloq t.	60
Samarqand t.	59
Ishtixon t.	52
Nurobod t.	49
Payariq t.	48
Pastdarg'om t.	45
Oqdaryo t.	41
Kattaqo'rg'on sh.	38
Jomboy t.	38
Kattaqo'rg'on t.	26
Bulung'ur t.	24
Narpay t.	21
Paxtachi t.	18
Qo'shrabot t.	17



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi - 909 tasi yoki 89,7 foizi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki:

-97,2 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2023-yilning mos davriga nisbatan 103,3 foizni tashkil etdi;

-yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 1,9 foizni, o'sish sur'ati 95,0 foizni tashkil etdi;

-yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 0,9 foizini, o'sish sur'ati 150,0 foizni tashkil etdi.

9

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

19




985

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Samarqand sh.	362
Toyloq t.	89
Samarqand t.	82
Urgut t.	76
Pastdarg'om t.	55
Jomboy t.	45
Bulung'ur t.	38
Ishtixon t.	35
Kattaqo'rg'on sh.	28
Payariq t.	26
Oqdaryo t.	25
Narpay t.	24
Kattaqo'rg'on t.	19
Nurobod t.	19
Paxtachi t.	18
Qo'shrabot t.	9



2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 2,3 foiz ulushini tashkil etdi.

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

-quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilot 89,8 foizni tashkil etdi;

-ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 111,0 foizni;


-pochta va kuryerlik yo'nalishi 97,0 foizni tashkil etdi.

Havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 35,0 foizni tashkil etdi.



Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

2024-yil 1-avgust holatiga ko‘ra, birlikda



Tashkiliy-huquqiy shakl – subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

-xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;

-tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;


-idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;

-ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2024-yil yanvar-iyul oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati, foizda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Hududlar kesimida

Samarqand sh.	875	11,5 %	Toyloq t.	128	16,0 %
Samarqand t.	607	29,5 %	Payariq t.	107	10,9 %
Pastdarg'om t.	201	15,7 %	Kattaqo'rg'on sh.	106	11,2 %
Urgut t.	176	10,2 %	Qo'shrabot t.	104	15,5 %
Kattaqo'rg'on t.	170	17,0 %	Ishtixon t.	94	13,3 %
Nurobod t.	163	18,0 %	Jomboy t.	87	11,0 %
Bulung'ur t.	151	16,3 %	Narpay t.	80	18,6 %
Oqdaryo t.	130	14,0 %	Paxtachi t.	66	12,8 %

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar


2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 34 816 ta tijorat korxonalar va tashkilotlarining 22 238 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi va tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Hududlar kesimida


Samarqand sh.	7 579	Bulung'ur t.	925
Samarqand t.	2 058	Nurobod t.	905
Urgut t.	1 720	Toyloq t.	798
Pastdarg'om t.	1 284	Jomboy t.	790
Kattaqo'rg'on t.	999	Ishtixon t.	708
Payariq t.	980	Qo'shrabot t.	670
Kattaqo'rg'on sh.	947	Paxtachi t.	515
Oqdaryo t.	931	Narpay t.	429

2024-yil yanvar-iyul oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati, foizda

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Xususiy korxonona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Hududlar kesimida

Toyloq t.	63	16,5 %	Jomboy t.	23	11,0 %
Samarqand t.	54	21,8 %	Kattaqo'rg'on sh.	20	16,0 %
Paxtachi t.	43	13,5 %	Urgut t.	20	3,8 %
Pastdarg'om t.	41	9,6 %	Oqdaryo t.	10	4,1 %
Samarqand sh.	40	5,6 %	Bulung'ur t.	10	5,6 %
Kattaqo'rg'on t.	33	16,2 %	Payariq t.	6	6,3 %
Narpay t.	33	7,6 %	Nurobod t.	4	3,2 %
Ishtixon t.	28	5,7 %	Qo'shrabot t.	3	3,0 %

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 80,8 foizni tashkil etgan.

Xususiy korxonalar sonining eng ko'p ulushi quyidagi hududlarda qayd etilgan: Samarqand shahrida - 720 ta, Urgut tumani - 526, Ishtixon - 488, Narpay tumani - 434 va Pastdarg'om - 425 tani tashkil etmoqda.


Hududlar kesimida

Samarqand sh.	720	Oqdaryo t.	245
Urgut t.	526	Jomboy t.	209
Ishtixon t.	488	Kattaqo'rg'on t.	204
Narpay t.	434	Bulung'ur t.	178
Pastdarg'om t.	425	Kattaqo'rg'on sh.	125
Toyloq t.	381	Nurobod t.	125
Paxtachi t.	318	Qo'shrabot t.	100
Samarqand t.	248	Payariq t.	95


2024-yil yanvar-iyul oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Oilaviy korxonalar – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


Hududlar kesimida

Samarqand sh.	178	9,9 %	Bulung'ur t.	42	12,6 %
Pastdarg'om t.	112	14,5 %	Toyloq t.	40	9,0 %
Kattaqo'rg'on t.	90	18,3 %	Jomboy t.	38	9,8 %
Samarqand t.	90	11,3 %	Narpay t.	37	12,1 %
Payariq t.	50	8,3 %	Oqdaryo t.	32	11,7 %
Ishtixon t.	49	11,8 %	Kattaqo'rg'on sh.	20	15,6 %
Urgut t.	49	13,1 %	Qo'shrabot t.	15	14,3 %
Paxtachi t.	48	31,4 %	Nurobod t.	10	20,8 %


2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra 2023-yilning mos davriga nisbatan 93,3 foizni tashkil etgan.

Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 124,6 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Samarqand sh.	1 802	Urgut t.	375
Samarqand t.	793	Bulung'ur t.	333
Pastdarg'om t.	774	Narpay t.	307
Payariq t.	600	Oqdaryo t.	274
Kattaqo'rg'on t.	491	Paxtachi t.	153
Toyloq t.	443	Kattaqo'rg'on sh.	128
Ishtixon t.	417	Qo'shrabot t.	105
Jomboy t.	387	Nurobod t.	48

Yangi tashkil etilgan chet el investitsiya ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot


2024-yil yanvar-iyul oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Chet el investitsiya ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Hududlar kesimida


Samarqand sh.	54	19,9 %
Samarqand t.	12	30,0 %
Pastdarg'om t.	7	21,9 %
Qo'shrabot t.	6	28,6 %
Jomboy t.	4	12,9 %
Ishtixon t.	4	25,0 %
Kattaqo'rg'on t.	4	36,4 %

Oqdaryo t.	3	11,5 %
Toyloq t.	3	21,4 %
Urgut t.	2	4,9 %
Bulung'ur t.	1	6,7 %
Paxtachi t.	1	12,5 %
Nurobod t.	1	8,3 %


2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 3,1 foizga oshdi.

Yetakchi o'rinni 113 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallab viloyatda chet el investitsiya ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 20,1 foizini tashkil etmoqda. Shuningdek, viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Turkiya Respublikasi (ulushi 17,8 foiz) va Rossiya Federatsiyasi (ulushi 16,7 foiz) davlatlari ham yetakchi o'rinlarni egallab kelishmoqda.


Hududlar kesimida

Samarqand sh.	271	Bulung'ur t.	15
Urgut t.	41	Toyloq t.	14
Samarqand t.	40	Kattaqo'rg'on sh.	13
Pastdarg'om t.	32	Nurobod t.	12
Jomboy t.	31	Kattaqo'rg'on t.	11
Oqdaryo t.	26	Payariq t.	11
Qo'shrabot t.	21	Paxtachi t.	8
Ishtixon t.	16	Narpay t.	1

2024-yil yanvar-iyul oylarida , birlikda

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 269 tasi qo'shma korxonalar, 294 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda


Xorijiy korxonalar

Qo'shma korxonalar


167	Samarqand sh.	104
4	Kattaqo'rg'on sh.	9
15	Oqdaryo t.	11
10	Bulung'ur t.	5
11	Jomboy t.	20
7	Ishtixon t.	9
6	Kattaqo'rg'on t.	5
14	Qo'shrabot t.	7
1	Narpay t.	-
7	Payariq t.	4
13	Pastdarg'om t.	19
3	Paxtachi t.	5
18	Samarqand t.	22
6	Nurobod t.	6
7	Urgut t.	34
5	Toyloq t.	9

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Xorijiy korxonalar



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Qurilish



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Qo'shma korxonalar



Sanoat



Savdo



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida jadal o'sishlar kuzatilmoqda hamda xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya, biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liqdir.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Samarqand viloyat statistika
boshqarmasi statistik registrlarni
yuritish boʻlimi
Tel.: 66-235-14-42